

**ZAVQIY ASARLARINING TIL XUSUSIYATLARI*****Keldiboyeva Gulzodabonus Avazbek qizi****Andijon davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)  
yo'nalishi 4- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada Qo'qon adabiy muhiti vakili Ubaydulloh Solih o'g'li Zavqiyning ijodiy faoliyatining o'r ganilishi va asarlarining uslubi hamda leksik va grammatic xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** leksik, grammatic, uslubiy, arabcha, forscha, tojikcha, ruscha-baynalminal.

Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlaridagi Qo'qon adabiy muhiti namoyondalarining ijodi xalqimiz badiiy tafakkuri rivojida muhim bosqich bo'lgan. Muqimi, Furqat, Muhayyir, Pisandiy kabi ijodkorlarning lirik va hajviy asarlari ilmiy va adabiy jamoatchilikka yaxshi tanish. Shular orasida mashhur lirik va hajvgo'y shoir Zavqiy ham alohida o'rin tutadi.

Ubaydulloh Zavqiy 1853-yilda Qo'qon shahrining Qatag'on dahasiga qarashli Shayxon mahallasida mahsido'z kosib Muhammad Solih oilasida tug'ildi. U dastlab eski usul maktabida, so'ng Jome' madrasasida tahsil olgan. Shoirning ijodiy faoliyati madrasada tahsil olib yurgan paytlarida boshlangan. Shu davrda u Muqimi, Furqat, Nisbat, Muhayyir kabi taniqli shoirlar bilan tanishdi, ular bilan adabiy majlislarda ishtirok etdi.

Ijtimoy hayotda faol ishtirok etgan Zavqiyning ayrim she'rlari, maqolalari "Turkiston viloyatining gazeti", "Sadoyi Farg'ona", "Tirik so'z", "Najot" gazetalarida hamda "Al-isloh" jurnalida bosilib turgan. Bundan tashqari Zavqiy Qo'qon va uning atrofidagi ko'pgina binolarning qurilishiga atab ta'rixlar yozgan. Ularning ayrimlari bizgacha yetib kelgan.

Zavqiy hayoti va ijodiy merosi o'tgan asrning 40-yillaridan o'r ganila boshladi. Marhum adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori Hoshimjon Razzoqov shoir tarjimayi holi, ijodiga doir manbalarni to'plash, o'r ganish, ommalashtirishda diqqatga sazovor ishlar qildi. U Zavqiyning 1500ga yaqin she'riy merosini ilk bor kitobcha holida so'zboshi va lug'at bilan 1958 va 1960-yillarda ikki marta nashr ettirdi, shoir hayoti va ijodi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Bundan tashqari, mazkur olim "Zavqiy" deb nomlangan alohida ilmiy risola ham e'lon qildi. Olim Sharafiddinov, Ibrohim Mo'minov, G'ulom Karimov, Abdurashid Abdug'ofurov, Ergashali Shodihev kabi taniqli olimlarimiz ham Zavqiy hayoti va ijodini ilmioy o'r ganish va ommalashtirishda muhim ishlarni amalga oshirdilar. Shundan so'ng Zavqiy shaxsiyatiga va ijodiga qiziqish yanada kuchaydi. Shoir

asarlari o’rta va oliy o’quv yurtlari darsliklaridan mustahkam o’rin oldi. Zavqiyning bir necha she’rlari taniqli hofizlar tomonidan kuyga solib aytila boshladи. Lekin shu o’rinda achinarli bir holni aytib o’tish kerak. U ham bo’lsa, shunday bir ajoyib shoirning asarlari kitob holida qirq yildan oshiq vaqt mobaynida biror marta ham qayta nashr etilmaganligidir. Vaholanki, keying yillardagi ilmiy izlanishlarning natijasida shoirning bir qator noma’lum asarlari topilib, respublika vaqtli matbuoti va ilmiy jurnallarida e’lon qilindi. Zavqiy shaxsiyati va ijodiga oid ayrim masalalarga oydinlik kirituvchi ilmiy manbalar nashr etildi. Adabiyotshunos olim Po’latjon Qayumovning 1958-yilda chop etilgan uch jilddan iborat “Tazkirayi Qayumi” tajkirasi ana shunday muhim ilmiy manbalardan hisoblanadi. Zavqiy o’z umri davomida talaygina she’rlar yozib, xalqning sevimli shoiriga aylangan bo’lsada, hayotlik chog’ida she’rlarini jamlab, bir kitob holida chop ettirgan emas. Qo’qon adabiyot muzeyida saqlanayotgan bir hujjatdan ma’lum bo’lishicha, shoirning o’z qo’li bilan tuzgan devoni shoir vafotidan so’ng, aniqrog’I 1930-yillarda uning rafiqasi Xayrunnis tomonidan Qashqarga olib ketilgan. Shoirning qizi Hanifaxon Xoziyeva 1961-yil 7-iyulda Qashqardan Qo’qondagi qarindoshlariga yozgan maktubida quyidagi jumlalar mavjud: “Otam mullo Ubaydulloh Zavqiyning o’z qo’llari bilan yozgan “Devon” lari mening qo’limda. Men vatanimni eslayman va sog’inaman. Ruxsat bo’lsa, vatanimga borsam, deb orzu qilaman”. Maktub oxirida u o’z turar joyini ham aniq ko’rsatgan: Xitoy Xalq Respublikasi, Qashqar shahri Yorbog’ rayon, Zargarlik ko’chasi, 6-uy.

Ubaydulla Solih o’g’li Zavqiy o’zbek demokratik adabiyotning mashhur namoyondalaridan biri hisoblanadi. Uning asarlari o’tkir tanqid, achchiq kulgu asosiga qurilgan bo’lib, o’z fikrlarini tasvirlashda yangi adabiy uslub hamda badiiy usullardan foydalangan. Zavqiy uslubining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u o’z asarlarida tarixiy shaxslarga va zamonasining mashhur kishilariga, olim-u fuzalolariga murojaat etadi, ular orqali turli o’xshatishlar hosil qiladi va ularni o’z asarlari uchun obyekt qilib oladi.

Yusufi Misriy kabi zindoni g’amda qolg’onim,

Choh ichinda yotqonim Ya’qubi Kan’onimga ayt.

Baytning birinchi misrasida Zavqiy g’am zindonida qolganini Yusuf payg’ambarning holatiga o’xshatmoqda. Biz Qur’on oyatlari orqali Yusuf alayhissalomning yaqinlari tomonidan quduqqa tashlab ketilgani (Yusuf surasi 10-oyat) hamda Misrda uzoq vaqt zindonda bo’lgani (Yusuf surasi 35-oyat) haqida bilamiz. Ikkinchi misrada ham yana bir tarixiy shaxs Ya’qub alayhissalom tilga olinmoqda, ya’nikim Yusuf alayhissalomning otasi.

Arzi holim yetmadi ul dilbari ra’nogakim,

Ey sabo, hudhud bo’lib arzim Sulaymonimg’a ayt.

Ushbu baytda Sulaymon alayhissalomga murojaat qilingan. Hudhud qushi orqali arzining Sulaymonga yetkazilishida ham ma’no bor. Hudhud qushi Qur’oni karimda zikr qilingan qushlardan bo’lib, Sulaymon alayhissalom bilan bo’lib o’tgan qissasi mashhurdir. Qissadan uning zakovati, omonatdorligi, ma’lumotni yetkazishdagi farosati ma’lum bo’ladi.

Zavqiy asarlari uslubining yana bir ajoyib jihat, tarixiy shaxs yoki voqealarga murojaat qilib qolmasdan, Qur’on oyatlaridan o’zining baytlariga singdirgan.

Vaqt tamosh, hangomi sahro,

Arsilhu ma’ano yarta’ va yal’ab.

Ikkinchi misraning ma’nosи Qur’oni Karimning Yusuf surasidagi 12- baytdan olingan bo’lib, “Uni biz bilan jo’nating, yayrab o’ynasin” – degan ma’noni anglatadi.

“Ahsani taqvim” da xalq ayladi nasli bashar,

Voqif o’l, odamg’a Haqning lutfi loyuhs, ko’rub.

Bu baytning birinchi misrasida ham Qur’oni Karimning Tiyn surasidagi 4-oyat keltirilgan. Ya’ni, “ Laqod’ holaqnul’insana fiy ahsani taqvim”. Haqiqatatan biz insonni xushbichim shaklda yaratdik.

Tushmasa gar arzimiz vasling qulog’iga qabul,

To tirikmiz, Zavqiy, Furqat hajr o’tig’a yonamiz.

Zavqiy bilan Furqat bir davrda va bir makonda ijod qilgan shoirlar hisoblanadi. Baytdan anglashiladiki, bir darddan Furqat va Zavqiy birgalikda iztirob chekmoqdalar.

“Arzon emas beillat, qimmat emas behikmat”,

Bemazhabu bemillat olgon ekan Bekturboy.

Kimki sanga pul qo’ydi, “Ko’p yaxshi” deb, qo’l qo’ydi,

Bir umr ani ishlari armon ekan, Bekturboy.

Butun boshli she’rning tasvir obyektiga aylangan Bekturboy Qo’qonda faoliyat ko’rsatgan aka-uka Kamenskiylar savdo kontorasining ish boshqaruvchisi . U firibgar, aldoqchi kimsa bo’lib, unga ishongan soda insonlarni chuv tushurib yurgan. She’rda uning kirdikorlari ustalik bilan tasvirlangan. Zavqiyning bu she’rini Bekturga bag’ishlangan she’rlar silsilasining muhim halqasi deyish mumkin. Yana e’tiborli jihat shundaki, Zavqiy asarlarida maqollardan ham o’rinli, oqilona foydalangan. “Arzon emas beillat, qimmat emas behikmat” jumlasini misol qilib keltirish mumkin.

Zavqiy o’z uslubida soddalik, ravonlikka erishish maqsadida xalq og’zaki ijodidan samarali foydalandi. U xalq maqollarini she’riy misralarga singdira bildi. Masalan:

Farq aylamay yaxshi-yomon,

Kim arpa bug'doy, kim somon,  
 Tuhmat haqoratlar hamon,  
 Ne muddaosiz afandilar.  
 Bul ajoyib hodisa, ko'r, xalqni hayron ayladi,  
 Andijon mulkini bir soatda vayron ayladi,  
 Bul kasofat ul sharoratdin namoyon ayladi,  
 "Birniki mingga, tumanga" ham parishon ayladi,  
 Hazrati Jabbori A'zam yerni yakson ayladi.....\*

Zavqiy asarlarida xalq tiliga xos bo'lgan so'zlardan ko'p foydalangan va shu bilan birga oddiy xalq hayoti bilan bog'liq mavzularda hamda oddiy kundalik turmush tarzidagi kichik muammolarni ham qalamga oldi.

Bobom jamolig'a to'ygan tabarrugim sigirim,  
 Momom visolini ko'rgan bu buzrugim sigirim.

Qishloq odamlari ishlata digan yana ham aniqrog'i yoshi ulug'lar nutqida uchraydigan "yopirim" so'zini ham misraga juda ustalik bilan singdirgan:

Oxirda yiqilibon ketganingcha chalqamcha,  
 Boshingda turdim-u dedimki: "yopirim" sigirim.

Zavqiy o'z asarlarida xalq tiliga xos so'zlardangina foydalanib qolmay, unga xos so'z birikmalarini ham ishlatgan. Jumladan:

Bu padar la'nat harom o'lgor otim,  
 Har qachonkim, men minar bo'lsam kasal.

Keltirilgan bu parchadagi padar la'nat, xarom o'lgor kabilar xalq tiliga xos bo'lgan birikmalardir.

Zavqiy asarlarida so'kishlar, qarg'ishlarni ham uchratamiz:  
 Berib fatvo "Urushinglar!" demay qozi Kamol o'lsun,  
 Hamani yo'ldan ozdurg'on o'shal fosidhayol o'lsun,  
 Yana Abdurashid hangi hardek oqsoqol o'lsun,  
 Bo'lub "Sho'ro" da a'zo, betamiz bir necha mol o'lsun,  
 Alar zulmi bilan bo'ldi, biling, murdor Farg'ona.

Zavqiy asarlarida ko'p qo'llagan san'at bu shubhasiz talmeh ekanini yana bir eslatib o'taman va shu bilan birgalikda uning she'rlarida tazodni ham ko'rdik. Eng chiroyli san'atlardan biri bo'lgan kitobat, sifatlash san'atlarini ham ko'rib o'tamiz:

G'aribu, bekasu, bechora behad,  
 Bamisli "Dol" yanglig' ham bo'lib qad.

Zavqiy Muqimiy va Furqatdan ko'ra jonli xalq tiliga ko'proq suyanadi, shu bois unda til xalqchilligi ustun darajadadir.

Bundan tashqari Muqimiy va Furqat asarlarida bo'lgani kabi Zavqiy asarlarida ham ruscha-baynalminal so'zlar uchraydi.

Hokim Medinskiy, pristavlar,  
Keldi, jamoa o’lturubdirlar.  
Pristav-sud ijrochisi

Kridit qani-yu, uchut qani, frason qani, qani so’lkavoy?  
Frotis bo’lub, ushalib, sinib, qani emdi karru far, iltimos .

Uchut-учет-hisob-kitob

Frason-процент-foiz

Frotis-протест-e’tiroz

Ko’r bo’lmasa pul oqib kelurmi  
Bu badshakl, slepoj durakka.  
O’ruscha maqtab Zavqiy: xoroshо,  
Juvon, pir, mardu zan monandi ishdur.

Хорошо-уахши

Дурак-ахмоқ

Орус-rus

Слепой-ко’р

Zavqiy asarlarida ruscha so’zlar bilan bиргаликда тоjикча, arabcha va forscha so’zlar uchraydi.

Ayladi Zavqiy raqam zarra magasdin shikvalar,  
Garchi mehmon erdi, zulm izhor qildi pashshalar.

Magas- chivin

Shikva- shovqin

Ado aylab edilar farzi hajni,  
Qilibon jami amvolu arozi.  
Mudarrislikka ham mansub edilar,  
Emas ma’lum “Muzori” birla “Mozi”.

Arabcha so’zlar: farz, Muzor (qabr), Mozi.

Zavqiy asarlarida ishlatilgan tojikcha so’zlar: avom (oddiy xalq), amvol (mulk), aroz (orzu), ashk, bekas, zabun (ojiz), dushvor, dayr (butxona), zan, botin, kas, imdod (yordam), lahn(kuy), mardum(kishi), magas (pashsha), shikva (shovqin), nihon, moh(oy), nuqra(kumush), tiyra (qorong’i), tifl (bola)...

Arabcha so’zlar: avsot (vasflar), ajnos(jinslar, xillar), alqob (laqablar), asror(sirlar), aflok(falaklar), af’ol(fe’llar), kavkab, kavokib(yulduzlar), maqdam(kelish), mahzar(hozir bo’lish), ushshoq(oshiqlar), qamar(oy), havodis, qusur(qasrlar)...

Ruscha so’zlar: veksel, o’rus, poyiz, vagun, kalaska, banka, tilgram, pristup, siyez, kamitet, bo’lus, jurnal, kalish, zovut...

Zavqiy asarlarini ko'zdan kechirsak, fonetik hodisalar bilan bir qatorda, ba'zi hollarda sintaktik jarayonlarning mavjudligini uchratamiz:

Xalqiki kambag'allar go'yoki g'altak o'ldi,  
O'lganni (ng) ustiga ham bir necha kaltak o'ldi,  
Bu voqea, Muqimiyl, har yerda dastak o'ldi,  
Pul-dabba, narx-qiyomat ustiga po'stak o'ldi,  
Po'stak (belig'a) bog'lab, Zavqiy, bayoni chiqdi.

Ikkinci misrada qaratqich kelishigi qo'shimchasi o'rniga uning muqobili sifatida tushum kelishi qo'shimchasi ishlatalganini ko'ramiz. Oxirgi misraga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, to'ldiruvchini ifodalanmayotganini ko'ramiz, lekin asarni o'qiyotganimizda to'ldiruvchini anglab turamiz. Misralardagi o'ldi shakllarining qo'llanilishi eski o'zbek tiliga xosdir.

Qaratqich kelishigi o'rnida tushum kelishigi qo'llanilishini boshqa o'rnlarda ham ko'ramiz:

Ko'p qiziq bu jahonni (ng) savdosi,  
Ko'rinur rang-barang tamoshosi.  
Har yerga borsa maqbuldur

Kimni (ng) bor bo'lsa nuqra, tillosi.

Shoir o'z asarlarida ravishdoshning -ibon shaklidan ko'p foydalangan, bu shakl ham eski o'zbek tiliga xos hisoblanadi.

Oxirda yiqilibon ketganiningcha chalqamcha,  
Boshingda turdim-u dedimki: "yopirim" sigirim.

Quyidagi baytda fonetik hodisani kuzatamiz, ya'ni tovush o'zgarishi:

Yasan-tusan qilar erdim sut-u qatig'ni sotib,  
Ki emdi qolmadi ustimda sholparim sigirim.

Erdim, emdi shakllarining qo'llanilishi eski o'zbek tili ta'siridir. Bu kabi ko'rinishlarni boshqa o'rnlarda ham uchratamiz:

Sen kanturlar ichinda yamon ekan Bekturboy,  
Temur sanduq degoni yalg'on ekan Bekturboy.  
Rahmi yo'q berahm ekan, bir so'rmadi: "Holing nechuk?"  
Arza xat tayyor qildim, begu honim kelsa deb.

Zavqiy uslubida jo'nalish kelishigi -ga, ko'proq -g'a hamda -a tarzida qo'llaniladi. Chiqish kelishigi uchun -din shakli, qaratqich kelishigi ko'p o'rnlarda -ni shaklida kelgan, o'rin kelishigi qo'shimchasi sifatida esa o'rni bilan -ga qo'shimchasi ishlatalgan, ko'p o'rnlarda -da shaklida kelgan.

Diydamizni manzarig'a qildi maskan, lutf etib,  
Shahrixondin bizni yo'xlab ul guli xandon kelib.

Baytlarda izofalar "I" bilan bog'langan:

Yusufi Misriy kabi zindoni g'amda qolg'onim,

Choh ichinda yotqonim Ya'qubi Kan'onimga ayt.

Yuqoridagi baytda sifatdosh -qon, -g'on ko'rinishida qo'llangan.

Bog'layub ahdi muhabbat, sanga bo'lduk oshno,  
Garchi bo'lsa sarvqad jilvagahi begonamiz.

Bu misralarda ravishdoshning -yub shakli qo'llangan. O'tgan zamon qo'shimchalarining -du shakli hamda birinchi shaxs ko'plik -k qo'shimchasidan foydalanilgan.

Zavqiying ijodida harakat nomining -mog', -mak shakllari, ot yasovchi qo'shimchalarning eng ko'p qo'llangan variantlari -lug', -lig', -liq, -mu so'roq yuklamasi, o'tgan zamonning -du, -tu variantlari, bilan ko'makchisi muqobillari bo'lgan birla, ila shakllari, tushum kelishigi sifatida -in qo'shimchasi ,ravishdoshning -ibon, -yub, -ub, -b qo'shimchalari qo'llangandir.

Umuman, Zavqiy o'z she'riyati bilan o'zbek adabiy tilini xalq tiliga xos grammatik shakllar bilan mukammallashtirdi. Shuning uchun ham o'zbek adabiy tili demokrat shoirlar, jumladan, Zavqiy ijodi bilan yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Zavqiy. She'rlar, ilmiy tadqiqot maqolalar, xotiralar. Nashrga tayyorlovchilar:
2. A.Turdialiyev. R.Ziyayev. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
3. Zavqiy. Ajab zamona. Nashrga tayyorlovchilar: A. Madaminov, A.Turdialiyevlari– Toshkent: Sharq, 2003.
4. Zavqiy ijodi. (Maqolalar, xotiralar, she'rlar). – Farg'ona, 2008.
5. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
6. H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent:Talqin, 2005.
7. Hozirgi o'zbek tili. O'quv-uslubiy majmua. Tuzuvchi: Tog'ayev T.M. Toshkent: 2016.
8. Devonu lug'otit turk. Indeks-lug'at. Toshkent: Fan, 1967.
9. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Turkiy so'zlar. Toshkent: Universitet, 2000.
10. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Arab so'zlari va ular bilan hosilalar. Toshkent: Universitet, 2003.